

## AYRIM XORIJIY MAMLAKATLARNING PROFILAKTIK HISOBGA OLISH MEXANIZMINI QO'LLASH TAJRIBASI



**Naimov Raximjon Xafizovich**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorij mamlakatlari, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Rossiya va boshqa davlatlarda jinoyat sodir etgan, huquqbuzarlik qilgan yoki ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni profilaktik hisobga olish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribani o'rganish asosida O'zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktik hisobga olish, xorijiy tajriba, jinoyatchilik profilaktikasi, probatsiya, jinoyat sodir etgan shaxslar, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, ijtimoiy reintegratsiya, reabilitatsiya.

### ОПЫТ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ПРИМЕНЕНИЮ МЕХАНИЗМА ПРОФИЛАКТИЧЕСКОГО УЧЕТА

**Аннотация.** В данной статье исследуется опыт зарубежных стран по применению механизма профилактического учета. Автором проанализированы особенности механизма профилактического учета лиц, совершивших преступления, правонарушения или освобожденных из мест лишения свободы в США, Великобритании, Германии, Франции, Японии, Республике Корея, Сингапуре, России и других странах. На основе изучения зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию системы профилактического учета в Узбекистане.

**Ключевые слова:** профилактический учет, зарубежный опыт, профилактика преступности, проба́ция, лица, совершившие преступления, лица, освобожденные из мест лишения свободы, социальная реинтеграция, реабилитация.

### EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES IN APPLYING THE MECHANISM OF PREVENTIVE REGISTRATION

**Abstract.** This article examines the experience of foreign countries in applying the preventive accounting mechanism. The author analyzed the features of the mechanism for preventive registration of persons who have committed crimes, offenses, or have been released from places of detention in the USA, Great Britain, Germany, France, Japan, the Republic of Korea, Singapore, Russia, and other countries. Based on the study of foreign experience, proposals and recommendations have been developed for improving the preventive accounting system in Uzbekistan.

**Keywords:** preventive registration, foreign experience, crime prevention, probation, persons who have committed crimes, persons released from places of detention, social reintegration, rehabilitation.

Jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish har qanday davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu vazifani hal qilishning asosiy vositasi profilaktik hisobga olish mexanizmi

hisoblanadi. Profilaktik hisobga olish – bu jinoyat sodir etgan, huquqbuzarlik qilgan yoki ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni nazorat qilish va ularning qayta jinoyat yo'lga kirishining oldini olish maqsadida amalga

oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi. Dunyoning turli mamlakatlarida profilaktik hisobga olish mexanizmlari farqli xususiyatlarga ega bo'lib, ular har bir mamlakatning huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy rivojlanishi va boshqa omillarga bog'liq. Shu bois xorijiy mamlakatlarning profilaktik hisobga olish mexanizmlarini qo'llash bo'yicha tajribasini o'rganish va tahlil qilish O'zbekistonda ushbu sohadagi islohotlarni yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2014-yil 14-mayda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining [1], 2018-yil 24-yanvarda «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining [2] qabul qilinishi bu sohadagi muhim qadamlar bo'ldi. Biroq, xorij mamlakatlarining ilg'or tajribalarini o'rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish orqali profilaktik hisobga olish mexanizmini yanada takomillashtirish imkoniyatlari ham mavjud.

Aynan shundan kelib chiqqan holda xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo'llash bo'yicha ilg'or tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaliyotiga tatbiq etish maqsadida o'rganishlar olib borildi. Quyida ayrim rivojlangan mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo'llash faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

**Amerika Qo'shma Shtatlarida** profilaktik hisobga olish mexanizmi asosan probatsiya (probation) [3] va shartli ozod qilish (parole) tizimlari orqali amalga oshiriladi. Probatsiya – bu sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga tayinlanadigan shartli jazo bo'lib, mahkum jamiyatda qolgan holda sud tomonidan belgilangan shartlarga rioya qilishi va probatsiya xizmati nazorati ostida bo'lishi kerak. Shartli ozod qilish esa ozodlikdan mahrum etish jazosining bir qismini o'tab bo'lgan shaxslarni ozodlikka chiqarish bo'lib, ular ham ma'lum shartlarga rioya qilish-

lari va nazorat ostida bo'lishlari lozim.

AQSHda har bir shtatning o'z probatsiya va shartli ozod qilish tizimi mavjud bo'lib, ular orasida ma'lum farqlar mavjud. Federal darajada ham probatsiya xizmati mavjud, u federal jinoyatlar bo'yicha sudlangan shaxslar bilan ishlaydi. AQSHda profilaktik hisobga olish tizimi o'z ichiga elektron nazorat tizimini, xavf darajasini baholashni metodikasini, darhol aralashuv prinsipini, maxsus dasturlarni va jamoat tashkilotlari ishtirokini qamrab oladi. Xususan, AQSHda profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar, GPS-trekerlar va boshqa elektron nazorat vositalaridan keng foydalaniladi. Bu ularning harakatlanishini nazorat qilish va belgilangan cheklovlarga rioya qilishini ta'minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, AQSHning profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini baholashning ilmiy asoslangan tizimidan foydalanish amaliyoti diqqatga sazovor [4]. Bu tizim (Risk-Needs-Responsivity model – Xavf-ehtiyoj-moslashuvchanlik modeli) shaxsning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini baholash va unga mos profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi. Mazkur mamlakatda profilaktik hisobda turgan shaxs belgilangan qoidalarini buzganda darhol aralashuv (swift, certain, and fair sanctions) tizimi ishga tushiriladi [5]. Bu yondashuv profilaktik hisobda turgan shaxs belgilangan qoidalarini buzganda darhol, aniq va adolatli jazo choralari qo'llashni nazarda tutadi. Bu yondashuv AQSHning bir qator shtatlarida samarali natijalar berayotganligini qayd etish mumkin.

Shu bilan bir qatorda profilaktik hisob yuritish doirasidagi chora-tadbirlar orasida maxsus dasturlarni alohida keltirish joiz. AQSHda profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli maxsus dasturlar mavjud: giyohvandlikdan davolanish dasturlari, psixologik yordam dasturlari, kasbiy ta'lim va bandlik dasturlari va boshqalar. Bu dasturlar profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur faoliyatda jamoat tashkilotlari ishtiroki keng joriy etilganligini e'tirof etish joiz [6]. AQSHda

profilaktik hisobga olish tizimida nodavlat va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko'rsatadi.

**Buyuk Britaniyada** profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Service) orqali amalga oshiriladi. 2014-yilda o'tkazilgan islohotlar natijasida probatsiya xizmati ikki qismga bo'lingan: milliy probatsiya xizmati (National Probation Service) va xususiy kompaniyalar (Community Rehabilitation Companies) [7]. Milliy probatsiya xizmati yuqori xavf tug'diruvchi jinoyatchilar bilan, xususiy kompaniyalar esa o'rta va kam xavf tug'diruvchi jinoyatchilar bilan ishlaydi. Biroq, 2021-yilda bu tizim qayta birlashtirilgan va hozirda yagona probatsiya xizmati faoliyat yuritmoqda.

Buyuk Britaniyada profilaktik hisobga olish tizimining o'ziga xos xususiyatlari qatorida integratsiyalashgan huquqbuzarlarni boshqarish (Integrated Offender Management)ni keltirish mumkin. Bu yondashuv profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan turli idoralar (politsiya, probatsiya xizmati, sog'liqni saqlash, mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar) hamkorlikda ishlashini nazarda tutadi [8]. Bu yondashuv, ayniqsa, takroran jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan ishlashda samarali natija bermoqda.

Mazkur organlarning hamkorlikdagi faoliyatida Offender Assessment System (*xavf, ehtiyoj va javobgarlikni baholash tizimi*)dan foydalaniladi. Bu tizim profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavflilik darajasini, ularning ehtiyojlari va reabilitatsiya dasturlariga moslashish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Bu baholash natijalari asosida har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya rejasi tuziladi. Mazkur reja asosida jamoat ishlari (*community payback*) tashkillashtiriladi. Buyuk Britaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlari mumkin. Bu ishlar jamoat joylarini tozalash, ko'kalamzorlashtirish, ijtimoiy obyektlarni ta'mirlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu

ularning jamiyatga foydali ishlar qilish orqali ijtimoiy maqomini tiklash imkonini beradi.

Keltirilgan vazifalarni bajarish uchun Buyuk Britaniyada ham profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan keng foydalaniladi. Profilaktik hisob doirasida amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda jamoat kengashlari (*community justice panels*)da muhokama etilib boriladi. Bu kengashlar jamoat vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalliy hokimiyat organlari vakillaridan iborat bo'lib, ular profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etadilar.

**Germaniyada** profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Bewährungshilfe) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Germaniyada probatsiya xizmati sud tizimining bir qismi hisoblanadi va u sudlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Germaniyada profilaktik hisobga olish tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy yordam xizmati xodimlarining ishtirokida namoyon bo'ladi. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy yordam xizmati xodimlarning roli juda muhim [9]. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ularga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko'rsatish bo'yicha faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, probatsiya doirasida reintegratsiya dasturlaridan faol foydalaniladi. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli reintegratsiya dasturlari mavjud. Bu dasturlar shaxsning qayta ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan. Mazkur mamlakat tajribasining eng muhim jihati – profilaktik hisobda turgan shaxslar huquqlarini himoya qilishdan iborat. Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Ular sud orqali profilaktik hisobga olish qarorlarini apellyatsiya qilish huquqiga ega.

Profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga

mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtiroki ham ta'minlanadi. Germaniyada profilaktik hisobga olish tizimida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarni uy-joy, ish bilan ta'minlash va boshqa masalalarda yordam ko'rsatadi.

Eng qiziq jihati, Germaniyada profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun guruhli terapiya dasturlari keng qo'llaniladi [10]. Bu dasturlar shaxsning psixologik holatini yaxshilash, uning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan.

**Fransiyada** profilaktik hisobga olish tizimi asosan penitensiar xizmat (Service Pénitentiaire d'Insertion et de Probation – SPIP) orqali amalga oshiriladi. Bu xizmat Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, shartli hukm qilingan shaxslar va boshqa toifadagi shaxslar bilan ishlaydi.

Fransiyada profilaktik hisobga olish tizimida eng muhim masalasi – psixologik yordam va shaxsiy yondashuv, keyingina esa nazorat amalga oshiriladi [11]. Birinchi xususiyat bu shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdir. Fransiyada profilaktik hisobda turgan har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya rejasi tuziladi. Bu reja shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy, sog'liq va boshqa ehtiyojlarini hisobga oladi. Mazkur rejada jamoat xizmatlari (Travail d'intérêt général) ham kiritilishi mumkin. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslar tomonidan jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlaridan iborat choradir. Bu ishlar 20 soatdan 280 soatgacha bo'lishi mumkin.

Fransiyada profilaktik hisobga olish tizimida nodavlat va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etadi. Ular profilaktik hisobda turgan shaxslarga turli xizmatlar (uy-joy, ish, psixologik yordam va boshqalar) ko'rsatadi.

Fransiyada ozodlikni cheklash (Contrainte pénale) jazo turi 2014-yilda joriy etilgan bo'lib, u profilaktik hisobda turgan shaxsning erkinligini cheklash, ammo uni jamiyatdan ajratmaslikni nazarda tutadi. Bunda shaxs ma'lum shartlarga rioya qilishi va penitensiar xizmat nazorati ostida

bo'lishi kerak. Shu bilan birga, profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan foydalaniladi.

**Yaponiyada** profilaktik hisobga olish tizimi asosan shartli ozod qilish xizmati (Parole Office) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Yaponiyada shartli ozod qilish xizmati Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan shartli ozod qilingan va shartli hukm qilingan shaxslar bilan ishlaydi.

Yaponiyada profilaktik hisobga olish tizimi qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchisi – ko'ngillilar ishtiroki. Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlashda ko'ngillilar (Volunteer Probation Officers) faol ishtirok etadi. Ular mahalliy jamoatchilikdan saylanadi va profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi. Shu bilan birga, Yaponiyada ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun maxsus reintegratsiya markazlari (Rehabilitation Centers) mavjud. Bu markazlar ularga vaqtinchalik uy-joy, oziq-ovqat, ish topishda yordam va boshqa xizmatlarni taqdim etadi. Yaponiyada profilaktik hisobga olish tizimida mahalliy jamoatchilikning roli juda muhim. Mahalliy jamoatchilik vakillari profilaktik hisobda turgan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko'rsatishda ishtirok etadilar [12].

Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik va hurmat tamoyillariga asoslangan munosabat mavjud. Bu ularning qadr-qimmatini hurmat qilish va ijtimoiy maqomini tiklash imkonini beradi. Eng muhimi, bu oila ishtirokidir. Yaponiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning oila a'zolari ham profilaktik ishlarga jalb qilinadi. Oila a'zolari shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi va uning xulq-atvorini nazorat qilishda ishtirok etadi.

**Koreya Respublikasida** profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Office) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Koreya Respublikasida probatsiya xizmati Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar,

shartli hukm qilingan shaxslar va boshqa toifadagi shaxslar bilan ishlaydi [13]. Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan elektron bilaguzuklar va boshqa elektron nazorat vositalaridan, profilaktik hisobni yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Barcha profilaktik hisobda turgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar yagona elektron ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va tegishli organlar tomonidan foydalaniladi. 2008-yildan boshlab jinsiy jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarga nisbatan elektron nazorat majburiy ravishda qo'llaniladi. Lekin Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi. Mamlakatda jinoyat sodir etgan shaxslar uchun maxsus psixologik rehabilitatsiya markazlari mavjud bo'lib, ularda professional psixologlar va ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritadi.

Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslar uchun turli reintegratsiya dasturlari mavjud bo'lib, ushbu dasturlar kasbiy ta'lim, kompyuter savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, hayotiy ko'nikmalar va boshqa sohalarni qamrab oladi. Koreya Respublikasida profilaktik hisobda turgan shaxslar jamoat foydasi uchun bepul ishlar bajarishlari mumkin. Bu ishlar jamoat joylarini tozalash, ko'kalamzorlashtirish, ijtimoiy obyektlarni ta'mirlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Singapurda** profilaktik hisobga olish tizimi asosan probatsiya xizmati (Probation Service) va politsiya organlari orqali amalga oshiriladi. Probatsiya xizmati Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi tarkibiga kiradi va u, asosan, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlaydi. Katta yoshdagi shaxslar bilan esa Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi Penitensiar xizmat (Singapore Prison Service) shug'ullanadi.

Singapurda profilaktik hisobga olish tizimida "Sariq lenta" loyihasi (Yellow Ribbon Project) e'tiborga loyiq. Bu loyiha 2004-yilda ishga tushirilgan bo'lib, u ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga ko'maklashishga qaratilgan. Loyiha doirasida bu toifadagi shaxs-

larga ish topishda yordam ko'rsatish, kasbiy ta'lim berish, ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish kabi xizmatlar taqdim etiladi. Profilaktik hisobga olish tizimida jamoatchilikning roli juda muhimligi Singapurda tan olingan va jamoatchilik vakillari profilaktik hisobda turgan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko'rsatishda faol ishtirok etadi [14]. Singapurda profilaktik hisobda turgan shaxslarning oila a'zolari ham profilaktik ishlarga jalb qilinadi. Oila a'zolari shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi va uning xulq-atvorini nazorat qilishda ishtirok etadi.

Ushbu mamlakatda profilaktik hisobga olish tizimida xususiy sektor ham faol ishtirok etishini o'ziga xos jihat sifatida ko'rsatish mumkin. Xususiy kompaniyalar profilaktik hisobda turgan shaxslarni ishga qabul qilish, ularga kasbiy ta'lim berish va boshqa masalalarda yordam ko'rsatadi.

Singapurda profilaktik hisobga olish tizimida innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi. Masalan, "Through-care" modeli ozodlikdan mahrum etish joylarida boshlanadigan va ozodlikka chiqqanidan keyin ham davom etadigan uzluksiz yordam ko'rsatish tizimini nazarda tutadi.

**Rossiya Federatsiyasida** profilaktik hisobga olish tizimi Ichki ishlar vazirligi (politsiya) va Jazolarni ijro etish federal xizmati organlari orqali amalga oshiriladi. Politsiya organlari jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni profilaktik hisobga oladi, Jazolarni ijro etish federal xizmati esa ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni nazorat qiladi.

Rossiya Federatsiyasida profilaktik hisobga olishning bir necha turlari mavjud: umumiy profilaktik hisob, ma'muriy nazorat, shartli hukm qilingan shaxslarni nazorat qilish, voyaga yetmaganlarni profilaktik hisobga olish va boshqalar [15]. Rossiyada ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatiladi. Bu nazorat shaxsning harakatlanish erkinligini cheklash, ma'lum joylarga borishini taqiqlash, ma'lum vaqtda uydin chiqishni taqiqlash kabi choralarni o'z ichiga oladi. Rossiyada profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar

o'tkaziladi [16]. Bu suhbatlar shaxsning xulq-atvorini nazorat qilish, unga psixologik yordam ko'rsatish va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan.

Rossiyada profilaktik hisobda turgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda turli dasturlar va loyihalar amalga oshiriladi va profilaktik hisobga olish tizimida idoralararo hamkorlikka alohida e'tibor qaratiladi, idoralararo komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Xorij mamlakatlarining profilaktik hisobga olish mexanizmini qo'llash bo'yicha tajribasini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xorij mamlakatlarida profilaktik hisobga olish mexanizmlari turli xil bo'lib, ular o'sha mamlakatlarining huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy xususiyatlari va boshqa omillarga bog'liq. Biroq, barcha mamlakatlarda profilaktik hisobga olishning asosiy maqsadi shaxsni jamiyatga qayta integratsiyalash, uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishdan iborat.

2. Profilaktik hisobga olish mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishi uchun u nafaqat nazorat funksiyasini, balki ijtimoiy reabilitatsiya funksiyasini ham bajarishi kerak. Bu profilaktik hisobda turgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish, ularni ish bilan ta'minlash, uy-joy masalalarini hal qilishga ko'maklashish zarurligini anglatadi.

3. Profilaktik hisobga olish tizimida jamoatchilik, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslarni nazorat qilish va ularga yordam ko'rsatishda jamiyat barcha qatlamlarining ishtirokini ta'minlash zarurligini anglatadi.

4. Profilaktik hisobga olish tizimida zamonaviy texnologiyalarni, xususan, axborot texnologiyalari va elektron nazorat vositalarini qo'llash samaradorlikni oshiradi. Bu profilaktik hisobni yuritishda zamonaviy texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish zarurligini anglatadi.

5. Profilaktik hisobga olish tizimida xavf darajasini baholashning ilmiy asoslangan metodikalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktik hisobga olingan shaxslarning xavf darajasini aniqlash va ularga mos profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi.

6. Profilaktik hisobga olish tizimida idoralararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu turli idoralarning profilaktik hisobga olish jarayonida hamkorlik qilishi zarurligini anglatadi.

7. Profilaktik hisobga olish tizimi samaradorligini baholash mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Buda profilaktik hisobga olish tizimining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va muntazam ravishda monitoring o'tkazish kerak bo'ladi.

Demak, O'zbekistonda profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish uchun xorij mamlakatlarining ilg'or tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu borada profilaktik hisobga olish mexanizmini takomillashtirish, xavf darajasini baholash tizimini joriy etish, elektron nazorat tizimini va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, reintegratsiya dasturlari hamda ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, idoralararo hamkorlikni va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarur.

Xorij tajribani qo'llashda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini, huquqiy tizimini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu xorij tajribasini mexanik ravishda ko'chirib olish emas, balki uni milliy sharoitga moslashtirish zarurligini anglatadi.

Profilaktik hisobga olish tizimini takomillashtirish uzluksiz jarayon bo'lib, u doimiy ravishda yangi tendensiyalarni va innovatsion yondashuvlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu jahon miqyosida profilaktik hisobga olish sohasidagi yangi tendensiyalarni va innovatsion yondashuvlarni doimiy ravishda o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini anglatadi.

## Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni. 14.05.2014-yil, O'RQ-371-son. <https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 24.01.2018-yil, PQ-3484-son. <https://www.lex.uz>
3. Deering J. Probation Practice and the New Penology: Practitioner Reflections. – London: Routledge, 2018. – 224 p.
4. Farrington D.P., Welsh B.C. Crime Prevention and Public Policy // The Oxford Handbook of Crime Prevention / Ed. by M. Tonry. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 3-19.
5. Frieder D. Electronic Monitoring in the Criminal Justice System. – New York: Nova Science Publishers, 2020. – 152 p.
6. Kaebler D., Alper M. Probation and Parole in the United States, 2017-2018. – Washington: Bureau of Justice Statistics, 2020. – 25 p.
7. Mallender J., Roberts E. A Comparative Analysis of Community-Based Alternatives to Incarceration: A Cross-National Study. – London: RAND Europe, 2021. – 180 p.
8. Durnescu I. Pains of Probation: Effective Practice and Human Rights // International Journal of Offender Therapy and Comparative Criminology. – 2019. – Vol. 63. – №7. – P. 1056-1073.
9. Криминология и противодействие преступности в немецкоязычных странах (Германия, Австрия, Швейцария). <https://cyberleninka.ru/article/n/kriminologiya-i-protivodeystvie-prestupnosti-v-nemetskoyazychnyh-stranah-germaniya-avstriya-shveytsariya>
10. О деятельности полиции Германии по профилактике незаконного оборота наркотических средств. Центр-Берег. <http://center-bereg.ru/g152.html>
11. Ziyodullayev M.Z. Probatsiya xizmati: xorijiy tajriba va O'zbekistonda joriy etish masalalari // Huquq va burch. – 2019. – №6. – B. 42–46.
12. Ismoilov I.U. Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish: xorijiy tajriba // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2021. – №4. – B. 38–44.
13. Woo Y., Maguire E.R., Gau J.M. Direct and Indirect Effects of Procedural Justice on Cooperation and Compliance: Evidence from Korea // Police Practice and Research. – 2020. – Vol. 21. – №4. – P. 365-380.
14. Robinson G., McNeill F., Maruna S. Understanding Desistance from Crime. – Maidenhead: Open University Press, 2018. – 212 p.
15. Горбань Д.В., Стрелков Д.О., Кутаков Н.Н. Профилактический учет в системе мер предупреждения пенитенциарной преступности: проблемные вопросы и пути их решения // Вестник Самарского юридического института, 2018. – №4 (30).
16. Смирнов А. М., Андреев С. Н. Совершенствование правового регулирования профилактического учета осужденных к лишению свободы // Ведомости УИС. – 2016. – №6 (169).

